

Koronavirusga qarshi vaksinaning kuchaytiruvchi do'za intervalini qisqartirish va 30 yoshgacha bo'lganlarga "Pfizer" vaksinasini tavsiya qilish

O'lim xavfini hisobga olgan holda kuchaytiruvchi do'za (boost shot) orasidagi intervalni qisqartirish

Target guruh	Tavsiya etilgan emlash oralig'i	
	O'zgarti rishdan oldingi holat	O'zgarti rishdan keyingi holat
60+		
Infektsiya tarqalishiga moyil bo'lgan muassasa xodimlari va barcha foydalanuvchi shaxslar ¹⁾	6oy	4oy
Shifoxona xodimlari va barcha foydalanuvchi shaxslar		
Surunkali kasallikka ega bo'lgan shaxslar (18–59 yosh)		
Kasalxona va poliklinikalar kabi tibbiyot muassasalarining barcha xodimlari		
50+		
Ustuvor emlash kasb-hunar guruhi ²⁾	6oy	5oy
"Janssen" vaktsinasi bilan emlanganlar		
Immuniteti past bo'lgan shaxslar ³⁾	2oy	2oy (O'zgaris h yo'q)

- 1) Qariyalar uchun muassasalar (turar-joy, kunduzgi/tungi/qisqa muddatli parvarishlash), nogironlar uchun muassasalar (turar-joy/kunduzgi parvarishlash), qariyalarni parvarishlar muassasalar, "Sil" / "Lepromatoz moxov" kasalliklari bemorlarining turar joylar, uysizlar uchun muassasalar
- 2) Askarlar, politsiya, o't o'chiruvchilar, qirg'oq qo'riqlash patruli, sog'liqni saqlash xodimlari, maxsus bolalar bog'chasi ishchilari va bolalar bog'chasi hamshiralari, maxsus ta'lim va sog'liqni saqlash o'qituvchilari, axloq tuzatish muassasalari ishchilari, parvoz ekipaji va boshqalar.

- 3) O'tkir leykemiya, "Immunosupression" ga qarshi davo olayotgan bemorlar va boshqalar.
- Koronavirusqa qarshi vaktsinani o'z vaqtingizga moslab 2 hafta oldin ushbu sayt orqali (<https://ncvr.kdca.go.kr>) bron qilishingiz mumkin (22-noyabrdan (dushanba) boshlab)
 - * Emlash sanasi 6-dekabr (dushanba) dan keyin tanlanishi mumkin
 - Emlash vaqt kelganida, sizga bron qilish usili haqida xabar berish uchun individual xabarlar yuboriladi.
- "Pfizer" vaktsinasi 30 yoshgacha (1992 yil 1 yanvardan keyin tug'ilgan) bo'lganlarni (1chi va 2chi do'za) emlash uchun tavsiya etiladi.**
- Ba'zi mamlakatlarda Moderna vaktsinasi tufayli "Miyokardit" va Perikardit bilan kasallanish holatlari Pfizer vaktsinasiga qaraganda yuqori.
- Kundalik hayotimiz bosqichma-bosqich tiklanishi uchun Koronavirus xavfini baholash**
- Kundalik tiklanish bosqichi yoki tibbiy choralar ko'rish imkoniyatlariga e'tibor qaratuvchi ko'p ko'rsatkichli xavflarni kompleks baholashga asoslangan favqulodda vaziyatlar rejalarini amalga oshirish kabi choralar.
 - Haftalik baholash va 4 haftalik bosqichli baholashdan so'ng kundalik hayotimizni tiklash to'g'risida qaror chiqariladi.

<Ushbu tarjima Danuri Call Center 1577-1366 tomonidan amalga oshirildi>